
Xalq qabulxonasi, Adliya, hokim yordamchisi va deputatlar bilan hamkorlikda tibbiy ko'rik va sayyor qabul o'tkazildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida 2022 yil 15 yanvar kuni o'tkazilgan 2-sonli yig'ilish bayonining 17-bandida mahallalarda ijtimoiy muhitni yaxshilash, jumladan, olis, ijtimoiy ahvoli og'ir hamda ko'p millatli mahallalarda uch avlod uchrashuvlari, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va aholini tibbiy ko'rikdan o'tkazish choralari ko'rish topshirig'i berilgan. Ushbu topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Rishton tumanidagi Xalq qabulxonasi tashabbusi bilan joriy yilning 18 fevralida tasdiqlangan reja-grafik asosida 20 may kuni T.Axmedov MFY hududidagi Oilaviy shifokorlar punktida Rishton tuman Xalq qabulxonasi mudiri, tuman Adliya bo'limi, DXM, FXDYo, O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi Farg'ona viloyat Kengashi "Ayollar qanoti" faollari va tumandagi tashkilotlar bilan hamkorlikda sayyor qabul hamda Rishton tuman tibbiyot birlashmasi mutaxassislari bilan birgalikda tibbiy ko'rik o'tkazildi. Ushbu tibbiy ko'rikda qariyalar, nogironligi bo'lgan fuqarolar, homilador ayollar, "Temir daftar" va "Ayollar daftari"da ro'yxatda turadigan hamda boshqa fuqarolar tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Tuman tibbiyot birlashmasining malakali shifokorlar ishtirokida fuqarolarni tibbiy ko'rikdan o'tkazib, 135 nafar fuqarolar ishtirokida o'tgan tibbiy ko'rik davomida 14 nafar ayollarda onkologik va gemotologik kasalliklarning dastlabki bosqichi aniqlanib, qayta ko'riklardan o'tish va davolanish uchun yo'llanmalar berildi. Tibbiy ko'rikka kela olmagan, nogironligi bo'lgan bemorlarni esa xonadonlariga borgan holda tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi ta'minlandi. Shuningdek, mutasaddilar aholi bilan bevosita suhbatlashib, ularning muammolarini joyida o'rganishdi. Tuman Xalq qabulxonasi tashabbusi bilan qilingan tadbirlar televideniya namoyish qilish uchun tasvirga olinishi ta'minlandi.

2022-05-21 18:28:48